

3-MODUL – SAMARALI REJALASHTIRISH, RESURSLARNI TAQSIMLASH VA MUAMMOLARGA YECHIM TOPISH. STRATEGIK TASHABBUSLAR

MUQADDIMA

"Strategik rejalashtirish" kursining amaliy mashg'ulotlari shunday tuzilganki, ularni to'ldirish orqali siz tashkilotingizning strategik rivojlanish rejasining barcha bo'limlarini bosqichma-bosqich to'ldirishingiz mumkin (keyingi o'rinlarda SR deb yuritiladi).

Bajarish uchun topshiriqlar ikki turda taqdim etiladi: bajarish uchun majburiy (BM) va bajarish uchun tavsiya etilgan (BTE) topshiriqlar.

Topshiriqda Sizning topshiriqni bajarganingiz haqidagi belgingiz qo'yilgan bo'lsa, u bajarilgan hisoblanadi. Amaliy topshiriqlarni bajarishning yakuniy shakli "Strategik rejalashtirish" kursini tamomlaganligi to'g'risida sertifikat olish uchun asos bo'ladigan Sizning tashkilotingiz uchun tayyor strategik reja hisoblanadi. Strategik rejaning shablonini yuklab olish ham mumkin.

3-AMALIY MASHG'ULOT

NNTingiz rivojlanishining strategik rejasini shakllantirish uchun quyidagi topshiriqlarni bajaring:

1. **Steykxolderlar xaritasini tuzing, bajarish majburiy topshiriqni (BMT)** belgilang (strategik reja shabloniga muvofiq, 1.3-band, hajmi kamida 1 sahifa).
2. **NNTning joriy faoliyati SNW-tahlilini o'tkazing.** SWOT-tahlil natijalari bilan solishtirib oling va zaif tomonlarni kuchli tomonlarga aylantirish uchun, kelgusi qadamlarni taklif qiling. Sohaning kelgusidagi joylashuvini haqida aniqlab oling. 1-jadvalni to'ldiring, ya'ni parametrlarni ko'rib chiqing va Sizga mos keladiganini plyus yoki galochka bilan belgilang (masalan, 3 – juda kuchli tomon, -3 – juda zaif tomon, 0 – na kuchli, na zaif tomon). Strategik reja shabloniga muvofiq, 1.3-band, hajmi kamida 1 sahifa, bajarish majburiy topshiriq (BMT).
3. **Ssenariyli rejalashtirish o'tkazing va rivojlanish strategiyasini tanlang:**
 - tarmoqdagi eng muhim "harakatlantiruvchi kuchlar"/"muvaffaqiyat drayverlari" haqida axborot yig'ish;
 - rivojlanishning "sinov" ssenariylarini tuzing;
 - NNTingiz tanlangan tarmoqda strategik rivojlanishining "istalayotgan" ssenariysini tanlang;

- strategik reja loyihasini yakunlang (strategik reja shabloniga muvofiq, 2.3-band, hajmi kamida 1 sahifa), **bajarish majburiy topshiriq (BMT)**.
4. **NNTning tashkiliy tuzilmasini tuzing.** Xodimlarning son va sifat tarkibini belgilang, ularning rahbarlar va xodimlar/bajaruvchilar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorligi tartibini chizmalarda aks ettiring (strategik reja shabloniga muvofiq, 2.4-band, hajmi kamida 1 sahifa), **bajarish majburiy topshiriq (BMT)**.

 1. **NNTning rahbari va har bir xodimiga “Baholash varag‘i” to‘ldiring.** (strategik reja shabloniga muvofiq, 2.4-band, hajmi kamida 1 sahifa), **bajarish tavsiya etilgan topshiriq (BTT)**.
 2. **NNTning moddiy-texnik bazasi va moddiy-texnik bazani (MTB) boshqarish mexanizmlarini tasvirlang.** (strategik reja shabloniga muvofiq, 2.5-band, hajmi kamida 1 sahifa), **bajarish majburiy topshiriq (BMT)**.
 3. **Moliyaviy tushumlar (daromadlar) va ularning taqsimlanishi (xarajatlar) kanallarini belgilab oling:** muayyan rejani amalga oshirishga yoki NNTning joriy faoliyatini amalga oshirish uchun (strategik reja shabloniga muvofiq, 2.5-band, hajmi kamida 1 bet), **bajarish majburiy topshiriq (BMT)**.
 4. **Strategik rejaning barcha tarkibiy qismlarini SR tuzilishiga va ilgari bajarilgan topshiriqlarga binoan tuzing** (qarang, SR shabloni).

1-jadval. NNT faoliyatining ichki tahlili (SNW tahlil)

1	NNTning bozordagi obro'si		
2	Boshqa NNTlar orasida bozordagi ulushi		
3	NNT mahsulotlari va xizmatlarining sifati		
4	NNTdagi xizmat ko'rsatish sifati		
5	NNTdagi munosabatlar sifati		
6	NNTdagi innovatsiyalar/ijtimoiy g'oyalar samaradorligi		
7	NNT uchun marketing muhimligini, bu g'oya tashkilot xodimlarining (ham rahbarlar, ham bajaruvchilar) ongiga singgan-singmaganligini tushunish		
8	NNT uchun ehtiyojlar tadqiqoti mavjudligi		
9	Xodimlarda NNTning istiqbollari haqida aniq tasavvur mavjudligi		
10	NNT ijtimoiy loyihalari bozorining o'rganilganligi		
11	NNT faoliyatida taklif etilgan tashqi ekspertlar, maslahatchilar, murabbiylardan foydalanish		
12	NNTni istiqbol sari ilgari surish dasturining mavjudligi		
13	Marketing aloqalarining turlari: konferensiyalar, ko'rgazmalar, OAVda maqolalar va h.k.lardan foydalanish samaradorligi		
14	NNT faoliyatini rejalashtirishda amalga oshirilayotgan ijtimoiy loyihalarning istiqbolga egaligi hisobini yuritish		
15	NNTda narx siyosatining belgilanganligi, grant mablag'lardan tashqari qaysi xizmatlar va loyihalar daromad keltirishi mumkinligi		
16	NNT PRfaoliyati tizimining mavjudligi		
1	NNT maqsadlarini amalga oshirish uchun ishlab chiqarish bazasining mavjudligi:		
	ishlab chiqarish maydonlari		
2	asbob-uskuna		
3	malakali xodimlar		

4	sifat nazorati	
1	NNTning asoslangan byudjeti mavjudligi	
2	Faoliyatni amalga oshirish uchun NNTda o'z moliyaviy vositalarining mavjudligi	
3	Moliyalashtirishning ishonchli tashqi manbalari mavjudligi	
4	Ijtimoiy loyihalar(tadbirlar)ni amalga oshirish bo'yicha biznes rejaning mavjudligi	
5	Loyihalar o'zini qoplashi hisob-kitobi bormi (o'zini qoplash nuqtasi tahlili)	
6	NNTni rivojlantirishga yo'naltirilayotgan foyda ulushi yetarli ekanligi	
7	NNTning moliyaviy ko'rsatkichlarini qanday baholash mumkin	
8	NNT uchun grantlar olish ehtimoli	
1	NNT xodimlarining bilim darajasi	
2	NNT ijtimoiy loyihalarini asosiy bajaruvchilarning amaliy tajribasi	
3	NNTda mavjud muayyan loyihalarni amalga oshirish tajribasi	
4	O'z sohasidagi mamlakatimiz yutuqlarini bilish darajasi	
5	O'z sohasidagi dunyo yutuqlarini bilish darajasi	
6	Ijtimoiy loyihalar asosiy bajaruvchilarining bir-biriga psixologik mosligi	
7	NNTda kadrlar qo'nimsizligining mavjudligi	
8	Asosiy bajaruvchilarning jamoa bo'lib ishlay olishi	
9	NNTning bozor holati haqidagi dolzarb axborotga egaligi	
10	Bajaruvchilar jamoasi qarorlar qabul qilishga qo'yilganligi, qarorlar qanchalik kollegial qabul qilinishi	
11	Jamoalarda ijodkor yetakchilar — g'oyalar generatorlarining mavjudligi	
12	NNTda xodimlar motivatsiyasi tizimining mavjudligi	
13	Xodimlarning NNT yutuqlaridan manfaatdorligi	

14 Jamoa a'zolarining qo'shimcha motivatsiyasi choralari mavjudligi
(ijtimoiy paket, bonuslar va sh.k.lar.)

- | | | |
|---|---|--|
| | | |
| | | |
| 1 | Tashkilotda yetakchi mavjudligi | |
| 2 | NNT rahbarining boshqaruv tayyorgarligi darajasi | |
| 3 | Xodimlarning ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish tajribasi | |
| 4 | NNTda ishlarning uzoq muddatli rejalari mavjudligi | |
| 5 | Rahbariyat va xodimlar o'rtasida javobgarlik va vakolatlarning taqsimlanganligi | |
| 6 | Rahbarlar va xodimlarning motivatsiya darajasi | |
| 7 | NNT rahbari va xodimlarning tadbirkorlik mo'ljallari | |

Bajarilgan (tavsiya qilingan) topshiriqlar Strategik rejaga ilova sifatida rasmiylashtirilishi mumkin.